

ISSN 2010-5517

Jahon ADABIYOTI

Adabiy-badiiy, ijtimoiy-publitsistik jurnal



Fevral – 2022

Jahon ADABIYOTI

Adabiy-badiiy, ijtimoiy-publitsistik jurnal



Жамоатчилик кенгаши:

Сирожиддин САЙИД
Наим КАРИМОВ
Абдуқодир ТОШҚУЛОВ
Иброҳим ГАФУРОВ
Эркин АЪЗАМОВ
Хуршид ДЎСТМУҲАММАД
Шуҳрат РИЗАЕВ
Минҳожиддин МИРЗО
Баҳодир КАРИМОВ
Зуҳриддин ИСОМИДДИНОВ
Олимжон ДАВЛАТОВ
Мухиддин ОМОН

Бош мұхаррир:

Аҳмаджон
МЕЛИБОЕВ

Тахрир ҳайъати:

Мухиддин РАҲИМ
Назира ЖЎРАЕВА
Алимурод ТОЖИЕВ
Алишер ОТАБОЕВ
Даврон РАЖАБ
Мафтуна
МУҲАММАДАМИНОВА

МУАССИСЛАР:

РЕСПУБЛИКА МАҶНАВИЯТ
ВА МАҶРИФАТ КЕНГАШИ
ЎЗБЕКИСТОН ЁЗУВЧИЛАР
УЮШМАСИ

Журнал
<1997 йил июндан,
чиқа бошлаган

НАВОЙ САБОҚЛАРИ

- Алишер НАВОИЙ. Кўнгил фано кучидин зўри бозу истарким... (*Олим Давлатов шарҳи инглиз тилига Қосим Маъмуроғ тарж.*) 3
 Фаррух Расулов. Ким қилса иморатки 8

КЎ
ЗЎ

НАСР

- Франц КАФКА. Қалъа. Роман. (*Рус тилидан Вафо Файзуллоҳ тарж.*) 100

ШЕЪРИЯТ МИНТАҚАЛАРИ

- Хитой шеъриятидан. (*Рус тилидан Турсун Али тарж.*) 89

НОБЕЛЬ МУКОФОТИ СОВРИНДОРЛАРИ

- Иво АНДРИЧ. Дрина кўприги. Роман. (*Рус тилидан Рисолат Ҳайдарова тарж.*) 20

ТАРИХ ВА ТАҚДИР

- Камол МАТЕҚУБОВ. Султон Жалолиддин. Бадиа. 157

АДАБИЁТШУНОСЛИК. ФАЛСАФА

- Биби Робиа САИДОВА. Қаҳрамон рухиятида ёлғизлик талқини. 194
 Абдулҳақ РАХИМИЙ. Хорижий тазкиралар тарихига бир назар. 199

ЖАҲОН АДАБИЁТИ ДАРСХОНАСИ

- Баҳодир КАРИМ. “Булбуллар ичра тинмас забонман”. 185

- Муқовамизда. 203
 Журналнинг русча ва инглизча мухтасар мазмуни. 206

Баҳор сенсиз ўлуптур ма
 Қизил гул анда ўту оқ ш

Баҳор сенсиз
 Биҳзишт ичин

Ҳаёли хайли қўзумга келу
 Юзумки йўл-йўл ўлуптур

Fариб келма
 Эмас гариб ч

Кўнгул фано кучидин зўр
 Вужуд панжасини англ

Навоий эгни
 Фано ҳасири

Магар шаҳ ашаби олии
 Ки, қилмиши ўн кечалик

Шукуфа – дараҳт гули.
 Биҳзишт – жаннат.
 Лиқо – дийдор.
 Хайл – қўшин.
 Сиришк – кўзёши.

йликка
йликни
Султон

а юбо-
Султон

иннинг
ёрдам

ғодда-

лигиди

они ка-
и мам-

оннинг
үтреий

тумки,

н улут-
карим-

қаддас
он Жа-

нидан
Аллоҳ

а энг
ъмин-

одара

ратла-

Кало-

арши
бутун

чиши
гини,

илиш
и. Ну

Форс
тири-

бир
илан

нади.
шун-

арор
ксак

хар

-кам
бига
аси-

297)

“BULBULLAR ICHRA TINMAS ZABONMAN”

Rasul Hamzatov siyemosiga chizgilar

1

Jahon adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan talantli shoir Rasul Hamzatov (1923–2003) nomini butun dunyo biladi. She'riyat bilan oshno tutingan inson borki, uning ijodidan boxabar. Rasul Hamzatov yorqin iste'dod, donishmand inson, avar farzandi, Dog'iston faxri sifatida shuhrat qozondi. Zero, adib asarlari dunyoning bir nechta o'nlab tillariga tarjima qilingan va millionlab nusxada bosilib chiqqan, albatta. Shoir bor lirik ovozi bilan ona zaminni, vatanni va go'zal insoniy fazilatlarni tarannum etdi.

Zotan o'zbek xalqi, o'zbek o'quvchisi ham Rasul og'ani o'z shoiri sifatida e'zozlaydi, ardoqlaydi; to'yilda, madaniy-ma'rifiy anjumanlarda uning she'rlarini hofizlar qo'shiq qilib kuylaydi:

*"Bulbollar ichra tinmas zabonman,
Hamon yoningdaman, tanangda jonman.
Agar oshiqlaring o'n mingta bo 'lsa,
Bilgilki, alarning sardori menman..".*

Shoirning qalb so'zi har bir odam yuragiga yetib borsa, dardlari umuminsoniy mohiyat kasb etgan bo'ladi; tarannum qilingan pokiza his-tuyg'ular aks-sadosi har bir insonga zavq-shavq bag'ishlaydi.

Rasul Hamzatov o'z vaqtida ulkan o'zbek adiblaridan G'afur G'ulom, Asqad Muxtor, Shukrullo, Abdulla Oripov va boshqa ijodkorlar bilan do'st tutindi; o'zaro hamkorlik va qardoshlik rishtalarini bog'ladi. O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov yozadi: "Rasul Hamzatov o'zbek adabiyotining doimiy do'stidir. U bizning adabiyotimizni g'oyat sinchkovlik bilan kuzatib keldi. Ko'pchilik atoqli adiblarimiz haqida R.Hamzatov iliq so'zlar aytdi. Men bir muxlis sifatida R.Hamzatovni zamonamizning ulug' shoirlaridan biri deb atashga jur'at etar edim. Ushbu darajaga shoirning ijodi to'la asos bo'la oladi". Rasul Hamzatovning O'zbekiston xalq shoiri Zulfiya xonim to'g'risida jahon

shoiralariga qiyosan: “Yarqiroq yulduzlar qatorida o‘zbek shoirisasi Zulfiya munosib o‘rin egallaydi”, degan fikrni ko‘pchilik yaxshi biladi.

Rasul Hamzatov she’rlarining O‘zbekistonga kirib kelganiga yarim asrdan ko‘p vaqt o‘tdi. O‘z vaqtida Mixail Sholoxov, Gabriel Garsia Marques, Chingiz Aytmatovlardan intervyyular olgan talantli o‘zbek jurnalisti Anvar Jo‘rabyev (1948–2010) o‘tgan asarning 90-yillarida Rasul Hamzatov bilan ham hamsuhbat bo‘ladi. Suhbatni batafsil sharhlab o‘tirmayman. Ayrim ko‘chirmalar keltiraman:

“Jurnalist:

– Bugungi she’riyat oldidagi eng dolzarb masala?

Rasul Hamzatov:

– Shu-shu muəmmolarni ko‘tarish lozim deb, alohida ajratish qiyin. She’riyatning boshi bitta-yu, tashvishi mingta. Asosiysi – tinchlikni saqlash, oila, millat, Vatan taraqqiyoti. Oila bo‘lmasa, millat bo‘lmaydi, millat bo‘lmasa – xalq, xalq bo‘lmasa – Vatan. Ha, yana bir katta muammo – sevgini asrash!

Jurnalist:

– Yigirma birinchi asr she’riyatini qanday tasavvur qilasiz?

R.Hamzatov:

– Yangi-yangi voqealar, shak-shubhasiz, she’riyatga o‘zgacha ohang, shakl bag‘ishlaydi. Lekin she’riyat o‘zining asl manbayi – xalqning ma’naviy buloqlaridan suv ichib turishi lozim. Bordi-yu, shu buloqlarning ko‘zini qum qoplasa – dahshat! Xalq og‘zaki ijodi ham ana shu buloqlardan. Bizda yomon odam haqida shunday deyishadi: “Onasi unga alla aytmagan ekan-da”. Tog‘liklarning aql-zakovatini aniqlash uchun qadimda ularga uchta topshiriq berilardi – o‘tmas boltada o‘tin yorish, toshloq joyning yerini haydash va uchta ertak aytib berish..”.

Ayni damda jurnalist R.Hamzatovning O‘zbekistonga tegishli taassurotlari bilan ham qiziqadi:

“Jurnalist:

– O‘zbekistonga tez-tez kelib turasiz. Yurtimiz haqidagi taassurotlaringizni bilishni istardim.

R.Hamzatov:

– Agar o‘zbeklar meni tez-tez kelib turardi, deb hisoblashsa, demak, men ularning joniga tegibman. Mening nazarimda, O‘zbekistonda judayam oz bo‘lganman. Taassurotlarim esa bir umrli. Qadimiy obidalar! Suluv qizlar! Mard yigitlar! Ko‘hna bozorlar! Samarqand! Buxoro! Teatrlar! Takrorlanmas musiqa! Palov! Kabob!.. Men uchun eng yaxshi joy – do‘sstarim ko‘p bo‘lgan yer. Men uchun O‘zbekiston ana shunday aziz zamin. G‘afur G‘ulomnikida mehmon bo‘lganman. Oybek bilan yaqin edim, Mirmuhsin-u Ramz Bobojon bilan turli anjumanlarda ko‘rishib turardik. Ulkan taqdirli, irodali va umuman xislatlari behisob Zulfiyaxonimni mudom e’zozlayman. Sizlarda biri ikkinchisidan-da, iste’dodli shoirlar anchagina. Garchand O‘zbekiston she’ru qo‘sishqa boy esa-da, jahon klassik she’riyatiniyam yuksak qadrlashlaringga havasim keladi..”.

O‘zbekiston, o‘zbek shoirlari Rasul Hamzatov ijodini juda qadrlaydi. Uning she’rlari XX asrning 60-yillaridan boshlab o‘zbek tiliga tarjima qilina

boshlandi. Natijada 1964-yildagi (“Звезды”) nomli she’rlar to‘plami chiqdi. 1982-yili “Bir xonada she’rlar talantli shoirlarga tarjin umumpafosi sharqona hikmatla o‘zbek shoirlari orasida Rasul maydonga keldi. Aniqrog‘i, O‘zbekistonning 100 yillardagi shoirlari soni yigim Matjon, Muhammad Ali, Xursin Turli shoirlar tomonidan tarjimonlari (Toshkent. 2013. “O‘zbekiston”

Shuningdek, R.Hamzatov qilingan tarjimalari ham (“Davr press” nashriyoti) nomli Dog‘istonim asarida parcha ayni kitob tarjimasi bilan Asro o‘n yil shug‘ullandi. Natijada to‘liq tarjimasi nashr bo‘ldi. Abdulla Oripov so‘zboshi baholari berildi. Shoir she’riyani e’tiqodi, dunyoqarashidan o‘sib qo‘ydi. “Rasul aka tabiatiga ko‘ra odam edi. O‘zi kuylagan to‘siymosida mujassam edi”.

Alohiba ta’kidlash kerak. Adabiyotshunos olimlar tomonidan (I.Grinberg), deya tan olini ekan, Abdulla Oripov bir haqida “...Mening Dog‘istonim” ga bo‘ldi. Biroq ot allaqachon ekanini hamma biladi”.

“Mening Dog‘istonim” aqdas tahlil va talqin qilmoqda. san‘atga, adabiyotga, insanoqchilikga qizingga, singlingga o‘qiyiga, albatta. Shu e’tibordan Adabiyotning 100 yillardagi shoirlari, kitobida, ayniqsa, yosh ijodlari, Sulaymon Stalskiy, goh Abdulla Oripov qilingan.

Shoir muhabbatining bekorlari Byornslarga ham o‘xshab kelin, zavol topmaydi”. Muhabbatining dog‘istonlik uchun zavol topmaydi...

boshlandi. Natijada 1964-yilda shoirning “Yuksak yulduzlar” (“Высокие звезды”) nomli she’rlar to’plami shoir Mashrab Boboev tarjimasida bosilib chiqdi. 1982-yili “Bir xonodon farzandlari” to’plami chop etildi. Yaxshi she’rlar talantli shoirlarga tarjima uchun ilhom beradi. Hamzatov she’rlarining umumpafosi sharqona hikmatlarga juda hamohang. Shu sababdan bo’lsa kerak, o’zbek shoirlari orasida Rasul Hamzatov she’rlarining bir guruh tarjimonlari maydonga keldi. Aniqrog‘i, O’zbekistonda shoir she’rlarining turli avlodga mansub tarjimonlari soni yigirmadan ortdi. Ular orasida Erkin Vohidov, Omon Matjon, Muhammad Ali, Xurshid Davron kabi O’zbekiston xalq shoirlari bor. Turli shoirlar tomonidan tarjima qilingan she’riy guldasta “Umr karvonii” (Toshkent. 2013. “O’zbekiston” nashriyoti) nomi bilan nashr qilindi.

Shuningdek, R.Hamzatov she’rlarining shoir Asror Mo’minkon tomonidan qilingan tarjimalari ham “Men yuz qizga shaydoman” (Toshkent. 2014. “Davr press” nashriyoti) nomi bilan bosildi. Avvaliga shoirning “Mening Dog’istonim” asarida parchalar tarjima qilinib chop etilgan edi. Keyinchalik ayni kitob tarjimasi bilan Asror Mo’minkon jiddiy, mehr-muhabbat bilan bir necha o’n yil shug’ullandi. Natijada “Mening Dog’istonim” (2011-yil) kitobining to’liq tarjimasi nashr bo’ldi. Kitobga “Dog’iston yulduzi” sarlavhasi bilan Abdulla Oripov so’zboshi yozdi. Unda Rasul Hamzatov ijodiga yuksak baho berildi. Shoir she’riyati yer yuzidagi barcha kitobxonlarga dini, tili, e’tiqodi, dunyoqarashidan qat’i nazar birday manzur bo’lishi ta’kidlandi. “Rasul aka tabiatiga ko’ra sodda, samimi, bag’rikeng, nihoyatda zukko odam edi. O’zi kuylagan tog’liklarga xos mardlik va sadoqat ham shoir siyosida mujassam edi”.

Alovida ta’kidlash kerakki, o’ziga xos uslubga ega bo’lgan, ayrim adabiyotshunos olimlar tomonidan hatto adabiyot nazariyasi xususidagi kitob (I.Grinberg), deya tan olingan “Mening Dog’istonim” xususida to’xtalar ekan, Abdulla Oripov bir haqiqatni obrazli, shoirona yo’sinda ochiq aytadi: “...Mening Dog’istonim”ga o’xhash asarlar yozishga urinishlar ham ko’p bo’ldi. Biroq ot allaqachon minilgan edi. Chavandozi esa Rasul Hamzatov ekanini hamma biladi”.

“Mening Dog’istonim” asarini bugungi o’zbek o’quvchisi o’qib, olimlari tahlil va talqin qilmoqda. Bu asar shoirning “men”ini, dunyoqarashini, san’atga, adabiyotga, insonlarga, o’z tuprog’iga munosabatini ko’rsatadi. Mehr-muhabbatini, sadoqatini namoyon etadi. Shoirning adabiy-estetik olami aks etadi unda. “She’r shunday bo’lishi kerakki, uni hech tortinmay onangga, qizingga, singlingga o’qiy olgin”. Bu yosh ijodkorlar uchun hayotiy hikmat, albatta. Shu e’tibordan Abdulla Oripov aytadiki: “Mening Dog’istonim” kitobida, ayniqsa, yosh ijodkorlar uchun bebaho saboqlar ko’p. Ular goh Sulaymon Stalskiy, goh Abutolib, goh shoirning otasi Hamzat Sadasa tilidan bayon qilingan.

Shoir muhabbatining betakror kuychisi edi. U bir qarashda Petrarka, Robert Byornslarga ham o’xshab ketardi. Rostdan, bu dunyoda yolg’iz muhabbatgina zavol topmaydi”. Muhabbatning esa ranglari, ohanglari, turlari ko’p. O’zbek millatining dog’istonlik ulkan shoiri Rasul Hamzatovga muhabbatni ham aslo zavol topmaydi...

Rasul Hamzatov yozgan kitoblarni o‘zbek o‘quvchisi sevib o‘qiydi; sevib o‘qimog‘i lozim uning kitoblarini.

Darvoqe, kitoblar nima uchun yoziladi? Kitoblar qanday yoziladi? Kitoblarga qay yo‘sinda nomlar tanlanadi? Shoир kim? Qachon she‘r yozadi? Vatanni tushunish osonmi? Ona tilga, onaga mehr-muhabbat-chi? Deylik, hayotning keng qamrovli manzaralari – bu nima degan gap? Agar shu singari o‘nlab, yuzlab savollarga javob topishni istasangiz, albatta, Rasul og‘aning “Mening Dog‘istonim” kitobini o‘qing va uqing, aziz jurnalxon...

“Mening Dog‘istonim”da quyma fikrlar, she’riy parchalar, hikoyatlar, rivoyatlar, xotiralar, eng muhimi, hayotiy hikmatlar ko‘p. Misol: “To‘g‘ri, nafosat, yaxshilik, rahmdillik, muhabbat, go‘zallik, vatanparvarlik, iftixor, nafrat kabi tushunchalar bor. Biroq shu tushunchalar tufayli she’riyat paydo bo‘lganiday, bu tushunchalar she’riyat tufayli ulug‘vor. Ular she’riyatsiz, she’riyat ularsiz mavjud emas”.

Shoир eng ezgu his-tuyg‘ularni, betakror odamiylik fazilatlarini ulug‘ladi. Bunday ulug‘vorlikni ham, insonga mehr-muhabbatni ham, she’rlarining yozilish tarixi, shoир bosib o‘tgan umr va ijod yo‘llari tafsilotini ham “Mening Dog‘istonim” so‘zlab berishi mumkin. Muallif yozadi: “Tog‘liklardan so‘rashdi: nega sizlar tog‘larning borib bo‘lmaydigan joylarida uylaringizni qurasizlar? Tog‘liklar javob berishdi: “Yaxshi do‘stlar pisand qilmasdan yomon so‘qmoqlardan ham o‘tib kelishadi, yomon kishilarning esa bizga keragi yo‘q” – tog‘liklarga xos tabiat shunday va tog‘liklar shunday sadoqatli do‘stlarning qadriga yetishadi.

“Mening Dog‘istonim” asari shoирning “men”ini, dunyoqarashini, san’atga, adabiyotga, insonlarga, o‘z tuprog‘iga munosabatini ko‘rsatadi. Shoирning mehr-muhabbatini, oriyatini, mardona so‘zi va sadoqatini namoyish qiladi. Kitobning qadr-qiyomi juda baland. Bu asar uzoq umr ko‘radigan umriboqiy kitoblar sirasiga kiradi. “Mening Dog‘istonim” asarida nasr va nazm qorishi keladi. Unda adibning xotiralari, hayotiy tajribalari, o‘z millati va Vataniga sevgisi, ona til qadriga, milliy adabiyotga doir estetik qarashlari, ijod pallasidagi holatlari – barcha-barchasi juda qiziqarli va tabiiy bir ravishda beriladi.

“Mening Dog‘istonim” kitobining kichik ichki sarlavhalaridan biri “Til” deb nomlanadi. Har bir xalq o‘z milliy tili, til boyliklari, tilining go‘zalligi va o‘sha tilda yozilgan asarlar bilan faxrlanadi. Dunyoda qancha millat bo‘lsa, shuncha til bor. Ular orasida o‘lik tillar qatoriga qo‘shilganlari, unutilib borayotganlari qancha. Ammo milliy til hamisha milliy adabiyot bilan birga barhayotdir. Agar Rasul Hamzatov ijodi dunyo miqyosiga chiqmasa, ehtimol, dunyoda avar degan bir millat, bu millatning go‘zal urf-odatlari, tog‘liklarga xos mardligi va shijoati, ayniqsa, uning milliy tili borligini birov bilishi ham amrimahol edi. Rasul Hamzatov avar millatining faxri, avar tilida ijod qilib, rus tili vositasida o‘z asarlarini duyoning turli millatlari ko‘ngliga yetib borishning uddasidan chiqqan shoirdir.

“Men uchun dunyodagi tillarli, uzoq-yaqin, nurli, charo Shoir dunyo tillarini osmon tuzumi davrida barcha tillar siyosatdan sergaklangan mu birlashib osmonning yarmini istamayman”. “Bitta katta yuld singib, yo‘qolib ketishini naza aslo xohlamaydi. O‘zbek sho vaqtida o‘z she‘rlari bilan kur o‘lmaydi”, deb xitob etdi. Ab Men ham to‘ti bo‘lib qolaman sanaydigan Rasul Hamzatov uchadi. Tirik baliq esa oqimg shunday. Uning o‘z dunyoqar shopib aytish usuli hamda ma

Ona til qadri ijodkor uch o‘z Vatanidan uzoqda yashasidan so‘z ochadi. Rasson qaytib, xorijda yashayotgan O‘g‘lining sihat-salomatligi savoli va o‘z ona tilini unu o‘quvchi aslo esidan chiqari keladigan eng mudhish fojisi va farzand onasidan judo b ona tilga, ona Vatanga m Dog‘istonim” har kimni o‘zligini anglagan odam u ona tili “barcha dardlarning

R.Hamzatov iste’dodni ijodkordir. Odatda fikr bay ko‘ra obrazli tafakkur yoki foyda keltiradi. Shunda ij xayoliga metaforik yo‘si iste’dodni anglatish uchun to‘g‘risidagi ertakdan bo‘cholning hamma istaklarini ertak haqiqatga aylanib, so‘ralsa, bechora baliqchi aylantirilgan hikoyat zam bilan qadri kamaymaydi, kerak. Uni birovdan olib deb o‘z fikriga urg‘u ber

Rasul Hamzatov iste’dodni bir hayotiy voqeani bay yigitni shoир qilish uchun

“Men uchun dunyodagi tillar – osmondagи yulduzlar”. Tubsiz osmon turli-turli, uzoq-yaqin, nurli, charog‘on va miltirab turgan yulduzlari bilan ko‘rkli. Shoir dunyo tillarini osmondagи yulduzlarga qiyoslaydi. Mustabid sho‘ro tuzumi davrida barcha tillar birlashib dunyoda bittasi qoladi, degan g‘arib siyosatdan sergaklangan muallif yozadi: “Albatta, men barcha yulduzlar birlashib osmonning yarmini egallaydigan bitta katta yulduzga aylanishini istamayman”. “Bitta katta yulduz” – bu boshqa milliy tillarning bitta til tarkibiga singib, yo‘qolib ketishini nazarda tutadi va buni bir millatparvar ziyoli sifatida aslo xohlamaydi. O‘zbek shoirlari ham ona tilining zavol topmasligi uchun vaqtida o‘z she‘rlari bilan kurash maydoniga chiqdi. Erkin Vohidov “Ona tilim o‘lmaydi”, deb xitob etdi. Abdulla Oripov “Sen yo‘qolgan kuning shubhasiz, Men ham to‘ti bo‘lib qolaman”, deb yozdi. Har ikki o‘zbek shoiri o‘ziga ustoz sanaydigان Rasul Hamzatov tasavvuricha, qushlar hamisha shamolga qarshi uchadi. Tirik baliq esa oqimga qarshi suzadi. Haqiqiy ijodkor qismati hamisha shunday. Uning o‘z dunyoqarashi va boshqalar ayta bilmagan haqiqatni yo‘lini topib aytish usuli hamda mahorati-jasorati bo‘ladi.

Ona til qadri ijodkor uchun har narsadan ulug‘. Rasul Hamzatov “Til”ida o‘z Vatanidan uzoqda yashayotgan rassomning “Vatan sog‘inchi” degan asaridan so‘z ochadi. Rassom bilan Vatan to‘g‘risida suhbat quradi. O‘z eliga qaytib, xorijda yashayotgan rassomning qarindoshlarini, onasini izlab topadi. O‘g‘lining sihat-salomatligidan so‘zlaydi. Onaning ona tili to‘g‘risida bergen savoli va o‘z ona tilini unutgan o‘g‘liga nisbatan aytgan so‘zi – buni birorta o‘quvchi aslo esidan chiqarishi mumkin emas. Ona tilni unutish inson boshiga keladigan eng mudhish fojia – o‘lim bilan barobardir. Oqibat, ona farzandidan va farzand onasidan judo bo‘ladi. Til sabab! “Mening Dog‘istonim” shunday ona tilga, ona Vatanga muhabbat ruhi bilan sug‘orilgan kitob. “Mening Dog‘istonim” har kimni ogohlilikchaqiradigan asar. Aslida o‘zini bilgan, o‘zligini anglagan odam uchun ona tili bebahoy boylik, ona tili tengsiz xazina, ona tili “barcha dardlarning davosi”dir.

R.Hamzatov iste’dodni e’zozlaydigan, iste’dod qadriga yetadigan iste’dodli ijodkordir. Odatda fikr bayoni uchun uzundan-uzun oddiy gaplar yozgandan ko‘ra obrazli tafakkur yoki bayon ichiga biror ibratli hikoyatning joylanishi foyda keltiradi. Shunda ijodkor aytmoqchi bo‘lgan fikr-mulohaza o‘quvchi xayoliga metaforik yo‘sinda muhrlanadi. Bir sahifada Rasul Hamzatov iste’dodni anglatish uchun gapni barchaga ma’lum va mashhur tilla baliq to‘g‘risidagi ertakdan boshlaydi. Barchaga ma’lumki, tilla baliq baliqchi cholning hamma istaklarini bajo keltiradi. Biroq buni qarangki, agar bu olamda ertak haqiqatga aylanib, baliqdan shoirlik yoki yozuvchilik uchun iste’dod so‘ralsa, bechora baliqcha ham ilojsiz qolar edi. Ertakdan voqelikka to‘qib aylantirilgan hikoyat zamirida hikmat bor. Muallif “hikmatlarni qancha aytgan bilan qadri kamaymaydi, shu bois yana takrorlayman: yozish uchun iste’dod kerak. Uni birovdan olib bo‘lmaydi, iste’dod hatto tilla baliqchada ham yo‘q”, deb o‘z fikriga urg‘u beradi.

Rasul Hamzatov iste’dod tushunchasini anglatish uchun o‘zi guvoh bo‘lgan bir hayotiy voqeani bayon etadi. Ularning oilaviy qadrdonlaridan biri yosh yigitni shoir qilish uchun Rasul Hamzatov huzuriga yuboradi. Yordam so‘raydi.

Yigitcha asl maqsadi – tirikchiligidan, shoirlilik sohasining daromadidan so‘zlaydi. Uning qo‘lida ma’lumotnomalari, turli nufuzli tashkilotlardan olingan shoirlilikka tavsiyalari bor. Ammo iste’dod-chi? Yigitchaning iste’dod masalasiga aniq tashxis qo‘ygan shoir gapining boshidanoq ochiq-oydin haqiqatni aytadi: “Ming xohish-istik bo‘lgan taqdirda ham, seni shoir qilib bo‘lmaydi..”.

O‘z she’rlari bilan dunyoga tanilgan Rasul Hamzatov nazmdan nasrga ko‘chib, “Mening Dog‘istonim” asarini yozish arafasida o‘yga toladi. Men bu kitobni yozishim shartmi? Bu asar kimga kerak? Bu kitobda boshqalar aytgan gaplarini takrorlab qo‘yayotganim yo‘qmi? Agar ko‘chada issiq bo‘lsa, yelkaga qalin chopon yopib olish oqilning ishi emas. To‘q odamlarni mehmonga chaqirib ziyofat berishga zarurat yo‘q. U isrof! Birovlar allaqachon yozib qo‘ygan gaplarning takroriy bayoni shartmi? “Og‘ir o‘ylar iskanjasida qiynalaman”, deydi shoir va fikrini savolli yo‘sinda davom ettiradi: “Tashqarida havo allaqachon ochilib ketgan, quyosh charaqlab turgan bo‘lishiga qaramasdan issiq chakmonimni kiyib ko‘chaga chiqmayapmanmi? Ho‘kizni o‘g‘rilar o‘marib ketgandan keyin og‘ilxona eshagini mahkam tanbalamayapmanmi? Odamlar allaqachon eshitib bo‘lgan voqealarni hikoya qilmayapmanmi? Tantanali bazmdan endigma chiqqan odamlarni mehmonga taklif etmayapmanmi?” Ho‘kizni o‘g‘rilar allaqachon o‘marib ketishgan bo‘lsa, endi og‘ilxona eshagini tambalashdan foyda yo‘q. Odamlar tantanali bazmdan chiqib kelayotgan, turli noz-ne’matlar bilan qorinlarini to‘ydirgan bo‘lsa, ularni qayta ziyofatga taklif etishdan ma’nii yo‘q. O‘zi yozayotan kitob qadrini o‘ylar ekan: “Umuman, shu kitobni yozishim shartmi?” Savolining javobi tayin: “Agar yozmaslikning uddasidan chiqsang, yozma”. Bu kitobni kim o‘qiydi? Bu kitob kimga foyda keltiradi? Darhaqiqat, xuddi shu savollar har bir ijodkorni o‘ylantiradi, qiyaydi, xursand yo mahzun etadi. Chunki yozilgan asarni birov o‘qishi, undan ma’naviy ozuqa olishi lozim. Kitoblari o‘qilgan ijodkorlar naqadar baxtli va aksinchalik.

Uzoq va yaqin tarixda juda ko‘p “ijodkorlar” unutildi. Yozib, hatto minglab nusxada nashr qilingan “asarlar” unutildi. Dunyo adabiyoti tarixida saodatli ijodkorlar yetarli, ammo ular juda ko‘p emas. Sababini iste’dodga bog‘lab muhokama qilish kerakdir, ehtimol.

Aslida, Rasul Hamzatov yaxshi asarlar iste’dodli ijodkorlarning qalami ostidan chiqishini juda yaxshi biladi. Iste’dod o‘zida bor-yo‘qligini odam ba’zan bilmaydi. Gohida odam o‘zining sezimlari, tuyg‘ulari, anglashlari boshqalardan farqlanib turishini his etadi. Bu his-tuyg‘u va anglamlarni u ba’zan iste’dod sifati bilan nomlamaydi ham. Iste’dod mansab va naslnasabga ham, tashqi ko‘rinish va mol-mulkka ham bog‘liq emas. “Iste’dod – sirli bir olam!” Rasul Hamzatov fikri shunday. Muallif davom etadi: “Alqissa, iste’dod yo bor bo‘ladi, yoki yo‘q. Iste’dodni hech kim bera olmaganday uni hech kim tortib ololmaydi ham. Iste’dodli bo‘lib tug‘ilish kerak”. Demak, iste’dod – Alloh bergen bebaho ne’mat.

Inson tabiatan qaysidir kasb, hunar yoki san’atga qobiliyati bilan dunyoga keladi. Uni anglash, qadrlash lozim, rivojlantirish kerak. “Dunyoda bir-biriga o‘xshash ikkita iste’dod bo‘lmaydi, agar bir-biriga o‘xshasa iste’dod

atalmaydi”. Iste’dodli odam t fahmi-farosati, o‘z so‘zi, yoz o‘zini tutishi bilan boshqalarga otasi Hamzat Sadasa huzuriga bozorda sotilishidan gap ochg anglamaydi. Anglashga fahmi javonlarga joylanmaydi, daraxt

Iste’dodli odam ko‘p ishslashiste’ dodning namoyishiga g‘albatta, “Mening Dog‘istonim” Ayni damda shoirning hay mahorat bilan o‘zbek tiliga rahmat aytmoq kerak.

Ijod ahli o‘zining chinak abadiyatga daxldor bo‘ladi. A falsafiy qarashlari bilan o‘nl o‘lmas xotirasidan o‘chma o‘quvchisiga doimiy ham barobardan “maktab o‘quv Chunksi uning qisqacha tarjin umumta’lim maktablarining o‘rin olgani haqiqat.

Shoir she’rlarining shak qamrovni nisbatan tugal ta bobilgan “Buyuk tuyg‘u” bilan tanishmoq lozim. K she’rlari, sonetlar, onalar e’tiborli sakkizlik va to‘rtish “Besh panja”, “Onalarni as va millat ardog‘i – alohida ulug‘lashga doir she’rlarini

“Otami”
So‘zlar
She’rlar
Ularni

Ulkan iste’dod egalari o‘ Buyuk tuyg‘u” kitobi individualligi va ijodiy izla xanjar, egar, qadah, tosh va

Deylik:

atalmaydi”. Iste’dodli odam tabiatida go‘zal fazilatlar jam bo‘ladi. U o‘z fahmi-farosati, o‘z so‘zi, yozgan asarlari, kundalik turmushdagi faoliyati, o‘zini tutishi bilan boshqalarga o‘rnak bo‘ladi. Aks holda Rasul Hamzatovning otasi Hamzat Sadasa huzuriga kelgan havaskor shoir holiga tushadi. Iste’dodni bozorda sotilishidan gap ochgan hamsuhbatining tagdor so‘zini, kinoyasini anglamaydi. Anglashga fahmi yetmaydi. Chunki iste’dod bozorda sotilmaydi, javonlarga joylanmaydi, daraxt mevasiga ham o‘xshamaydi.

Iste’dodli odam ko‘p ishlashi, mehnat qilishi, o‘qishi va uqishi lozim. Zero, iste’dodning namoyishiga guvoh bo‘lish uchun ham, muhtaram jurnalxon, albatta, “Mening Dog‘istonim”ni o‘qimoq va uqmoq lozim.

Ayni damda shoirning hayot kitobi bo‘lgan “Mening Dog‘istonim” asarini mahorat bilan o‘zbek tiliga to‘la tarjima qilgan shoir Asror Mo‘minga ham rahmat aytmoq kerak.

3

Ijod ahli o‘zining chinakam yuksak poetik qiymatga ega asarlari bilan abadiyatga daxldor bo‘ladi. Ayni damda, o‘zining eng to‘g‘ri fikr-mulohazalar, falsafiy qarashlari bilan o‘nlab millatlar, ming-millionlab odamlar qalbidan, o‘lmas xotirasidan o‘chmas o‘rin oladi. Rasul Hamzatov ijodi o‘zbek o‘quvchisiga doimiy hamroh. “O‘quvchi” so‘zini she’rxon kimsa bilan barobardan “maktab o‘quvchisi” ma’nosida ham tushunilishini istar edim. Chunki uning qisqacha tarjimayi holi va asarlari O‘zbekistonning barcha o‘rtalumumta’lim maktablarining o‘quv dasturidan, xususan, adabiyot darsliklaridan o‘rin olgani haqiqat.

Shoir she’rlarining shakl o‘ziga xosligi, mazmuniy teranligi va mavzu qamrovni nisbatan tugal tasavvur qilish uchun Asron Mo‘min tarjimasida bosilgan “Buyuk tuyg‘u” (“Yangi asr avlod” nashriyoti. 2021-yil) kitobi bilan tanishmoq lozim. Kitobda shoirning turli yillarda yozgan otashin she’rlari, sonetlar, onalar haqidagi qo‘shiqlar turkumlari, shakliga ko‘ra e’tiborli sakkizlik va to‘rtliklar, shu bilan birga “Shomilning muhabbati”, “Besh panja”, “Onalarni asrang” kabi dostonlari o‘rin olgan. Vatan tuprog‘i va millat ardog‘i – alohida uzun mavzu. Shuningdek, Onaga ehtirom, otani ulug‘lashga doir she’rlarning mag‘zi to‘q.

*“Otam shoir edi, lochin ko‘z edi,
So‘zlarda bexato olardi nishon.
She’rlari ovulda dunyoga keldi,
Ularni o‘qirdi butun Dog‘iston..”*

Ulkan iste’dod egalari ortida ulkan ma’naviy tayanch tog‘lari bo‘ladi.

“Buyuk tuyg‘u” kitobidagi “Yozuvlar” turkumi ham shoirning uslubiy individualligi va ijodiy izlanuvchanligidan darak beradi. Bu “yozuvlar” beshik, xanjar, egar, qadah, tosh va shu kabi narsalarga yozilgan ixcham hikmatlardir.

Deylik:

“O‘z xanjaring bilan maqtanma sira,
O‘zgada ham shunday xanjar bor, qara”,

degan so‘z xanjarda yozilgan bo‘lishi mumkin. Beshikda esa “Kichkina bolalar ham katta tushlar ko‘radi”, albatta. Yoki: “Eshikni sindirma, u kalit bilan ochiladi” – bu ham oddiy, sodda va haqqoniy aforizm. Tanbeh va aqlga chorlov ham anglashiladi undan. Bunday “yozuvlar”dagi barcha narsa va predmetlar – shartli. Muhimi, shoir o‘z hayotiy haqiqatlari va falsafiy tushunchalarini o‘quvchiga yangicha adabiy usulida taqdim etadi.

Darhaqiqat, Rasul Hamzatov she’rlari bilan O‘zbekistonda vatanparvar, millatparvar, do‘stlikni, mehr-muhabbatni tarannum etgan shoir sifati bilan tanildi.

O‘zbek adabiy jamoatchiligi Rasul Hamzatovni donishmand, faylasuf shoir sifatida ardoqlaydi. Shoir she’rlarida kutilmagan yechimlari bilan o‘quvchini to‘lqinlanadiradi. Uning ayrim she’rlarini tarjima qilgan yosh shoir Orif Tolib bu to‘g‘rida shunday yozadi: “She’rlardagi favqulodda fikrlar, favqulodda yechimlar sizni hayratlantirib, o‘ziga qattiqroq boylab oladi. Lekin shoir faqat mutafakkirligi bilangina o‘ziga xos emas.

Agar samimiyat, ochiqko‘ngillik, mardonilik, hurfikrlik, viqor kabi fazilatlar va otashin, chin tuyg‘ular aks etgan she’riyatni sog‘ingan bo‘lsangiz, hech ikkilanmay Rasul Hamzatovni mutolaa qiling”.

Ore, Rasul Hamzatov she’rlari odamni ruhan tetiklashtiradi. Chunki uning she’rlari yolg‘izga yo‘ldosh, oshiqqa sirdosh, dardmandga darddosh, musofirga eldosh bo‘lgan chuqur mazmunli ijod gulshanidir.

Rasul Hamzatov muhabbat tilini yaxshi biladi. “Sevgi himoyasi” she’rida:

“Qachonlardir aytmish buyuk Navoiy,
Muhabbat dardlarga malhamdir debon”,

deb yozadi. Hofiz Sheraziyan muhabbatdan saboq – epigraf olgani ma’lum.

Shoir tabiat tilini, tog‘u toshlar va o‘simliklar tilini, xususan, qushlar tilini yaxshi biladi. “Qush tili” – aynan shu nom bilan buyuk mutafakkir o‘zbek shoiri Alisher Navoiy muhtasham doston yozgan edi.

Rasul og‘a esa “Bulbul qo‘shig‘i”ni qog‘ozga tushirdi:

“Bulbul qo‘shig‘ini eshityapsanmi,
Tingla, qanday yuksak, qanday sof tuyg‘u.
Ammo neni kuylar – bilmaydi hech kim,
Qush tilin anglashdan ojiz insonlar.
Ishonaman:
Yurtin kuylayapti u.
Yo‘qsa, zerikardi allaqachonlar”.

Bulbul nolasida har kim har xil kayfiyatni sezadi. Rasul Hamzatov esa, bulbul navosida Vatan to‘g‘risidagi kuyni anglaydi. Zero, qush tilidan so‘zlash, qush tilini anglash shoirlar ahliga azaldan yo‘ldosh. Farididdin Attorning

“Mantiq ut-tayr”, Alisher Naeslang. Shu ulug‘ salaflarga so‘zlashadi; shu bois yuksak bemalol gurunglashadi.

“Tog‘lar
Ayting, s
Shahid b
Biz ular

R.Hamzatov she’riyatida
Shoir o‘z ovuli to‘g‘risida y
dardlariga bog‘lab xulosala
bayon etadi: “Men avar s
Avariston, nafaqat Dog‘iston
Yigirmanchi asr oldida qarze

Nazarimda, bizda boshqa
bo‘lgan muhim bir fakt bor. S
Rasul Hamzatovning mas
yodgorlik qo‘yilgan. Shoir
Vatanim. Dunyoda biron bi
Ikkinchi jahon urushida hal
she’rimga esa O‘zbekiston
yodgorlik o‘rnatilgan” (“O‘z
yanvar). Shoir qancha faxr e
ham shuncha mamnun. Sh
“hayotining izlari” hamdir.

Alovida ta’kidlash lozin
qo‘shiqqa aylangan so‘zla
O‘zbekiston xalq hofizi
ovozida hamon bir maromad

“Bulbul”
Hamo
Agar
Bilgil

“Mantiq ut-tayr”, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonlarini qayta bir eslang. Shu ulug’ salaflarga o’xshab, Rasul Hamzatov ham qushlar bilan so‘zlashadi; shu bois yuksak qoyalarni maskan tutgan burgutlar bilan ham bemalol gurunglashadi.

*“Tog’lar uzra baland uchgan burgutlar,
Ayting, siz kimlarning orzu-tilagi?
Shahid bo’ldi qancha tog’lik yigitlar,
Biz ularning qanot qoqqan yuragi..”.*

R.Hamzatov she’riyatida milliylik va umuminsoniylik uyg‘unlik kasb etadi. Shoир o‘z ovuli to‘g‘risida yoza turib ham, uni insoniyatning umuminsoniy dardlariga bog‘lab xulosalar chiqaradi. Ayni jihatni shoирning o‘zi bunday bayon etadi: “Men avar shoiriman. Ammo men o‘z qalbimda nafaqat Avariston, nafaqat Dog‘iston, balki butun mamlakat, butun sayyoramiz, butun Yigirmanchi asr oldida qarzdorman. Boshqacha yashab bo‘lmaydi”.

Nazarimda, bizda boshqalardan farqli o‘laroq alohida ta’kidlash kerak bo‘lgan muhim bir fakt bor. Shoирga, she’riga, she’r mohiyatiga hurmat sifatida Rasul Hamzatovning mashhur “Turnalar”iga (“Juravli”) O‘zbekistonda yodgorlik qo‘yilgan. Shoир quvonadi: “O‘zbekiston – mening ikkinchi ona Vatanim. Dunyoda biron bir shoирning she’riga haykal qo‘yilmagan. Mening ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan o‘g‘lonlarga bag‘ishlangan “Turnalar” she’rimga esa O‘zbekistonning Chirchiq shahrida juda ham mungli va yuksak yodgorlik o‘rnatalgan” (“O‘zbekiston adabiyot va san’ati” gazetasi, 2015-yil 23 yanvar). Shoир qancha faxr etsa, O‘zbekistondagi shoир she’rlarining muhiblari ham shuncha mamnun. Shoир e’tiroficha, kitoblari uning “sirli xilqati” va “hayotining izlari” hamdir.

Alohibda ta’kidlash lozimki, Rasul Hamzatovning “Oshiqlar sardori”ning qo‘sishqa aylangan so‘zlari va hazin musiqasi bir necha o‘n yildan beri O‘zbekiston xalq hofizi Sherli Jo‘rayevdek ulkan san’atkorning shirali ovozida hamon bir maromda eshitilib turibdi:

*“Bulbullar ichra tinmas zabonman,
Hamon yoningdaman, tanangda jonman.
Agar oshiqlaring o‘n mingta bo‘lsa
Bilgilki alarning sardori menman..”..*

Bahodir KARIM,
filologiya fanlari doktori, professor

